

TIBBIYOTDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARING DOLZARBLIGI



Xursanov Sherzod Ulaboyevich

*Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasи oqituvchisi.*

sherzod.xursanov@gmail.com

Shodiyeva Ohista Zokirovna

*Abdurazzoqova Zilola Abdumajid qizi.
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali
Davolash fakulteti 1-kurs talabasi
shodiyevaohista@gmail.com*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada an'anaviy o'qitish usullarining ma'naviy jihatdan eskirganligini hisobga olgan holda, ularni AKT va dasturiy ta'minotdan foydalangan holda ta'limda qo'llash hamda kuzatish va tahlillar asosida qo'yilgan maqsadga erishish maqsadi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Axborot, kompyuter, dasturiy ta'minot, ta'lif, innovatsiya, texnologiya, elektron darslik, elektron video darslik, pedagogik texnologiya.

АННОТАЦИЯ

В данной статье с учетом морального устаревания традиционных методов обучения, их использования в образовании с использованием ИКТ и программных средств, а также цели достижения цели на основе наблюдений и анализа.

Ключевые слова: Информация, компьютер, программное обеспечение, образование, инновации, технология, электронный учебник, электронный видеоучебник, педагогическая технология.

ABSTRACT

In this article, taking into account the obsolescence of traditional teaching methods, their use in education using ICTs and software tools, as well as the purpose of achieving the goal based on observations and analysis.

Keywords: Information, computer, software, education, innovation, technology, e-textbook, e-video textbook, pedagogical technology.

KIRISH.

Davlatimiz va hukumatimiz tomonidan zamon talablari asosida oldimizga qo‘yilayotgan vazifalar ishchi o‘rnlarni avtomatlashtirish xizmatini yanada sifatli takomillashtirish, elektron ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ularning elektron resusrlar fondini tashkil etish, ulardan aholining keng va samarali foydalanishini tashkil etish kelgusida shu sohada faoliyati ko‘rsatishi lozim bo‘lgan biz yoshlardan mukammal nazariy va amaliy bilim olishni talab etmoqda. Elektron ma'lumotlar bazasini samarali foydalanishni tashkil etishda tibbiyot muassasalarining faoliyatini reklama qiluvchi, elektron ma'lumotiar bazasini foydalanish samarasini oshiriuvchi vosita ularning web sahifalaridir. Keyingi paytda mamlakatimiz tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida multimediyali, animatsiyali elektron ma'lumotlar baza saytlarini foydalanuvchilarga xizmat ko‘rsatishning sifat va samarasini oshirish uchun talablarni hisobga olgan holda yaratish musobaqasi boshlandi. Ularning ko‘pchiligi qaysidir tomoni bilan ustun bo‘lsa, boshqa tomoni bilan hali qayta ishlashni, o‘zgartirishni talab etadi. Shuning uchun mamlakatimizda mavjud saytlarni tahlil qilishga, o‘rganish bilan birga, kelgusida yaratilishi lozim bo‘lgan dasturlarni ishlatishning qulayligiga e’tiborni qaratdik. Mamlakatimizdagi tibbiyot oliy ta’lim tashkilotlarida elektron hujjatlarni yaratish va saqlash masalalarini yoritish, shu mavzuga oid ma'lumotlar bazasini

shakllantirish hamda bu ma'lumotlar bazasidan foydalanish siyosatini ishlab chiqish zamonaviy asosi bo'lib xizmat qiladi. Tibbiyat oliv ta'lim tashkilotlarining foydalanuvchilariga zamon talablariga mos ravishda ma'lumotlarni tezkorlik bilan yetkazish hamda ularni elektron ko'rinishga o'tkazish asosiy vazifasidir. Maqsadlarimizdan tibbiyat muassasalarining keyingi faoliyati davomida ushbu ma'lumotlar bazasi elektron hujjatlarga doir ma'lumotlar bilan to'ldirib boyitilib shakllangan ko'rinishga aylanib boraveradi. Elektron hujjatlarni boshqarish tizimi bu elektron hujjatlarni yaratish, saqlash, manipulyatsiya qilish va joylashtirish jarayonlarini samarali tashkil etishga imkon beruvchi qurilmalar va dasturlar to'plamidir. Fan va texnikaning misli ko'rilmagan yutuqlariga ega hayotning o'zi axborotlarni yangicha, ilg'or usulda tez yaratish, saqlash, uzatish va ularga ega bo'lishning qulay yo'llarini ko'rsatib bermoqda. Tibbiyat oliv tashkilotlarida axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etilishi, elektron axborot olish usuli bosma axborot olish usulidan anchagina qulayligini isbotlab bermoqda. Axborot makoniga kirish, axborot olish usullari osonlashgani uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanuvchilar soni kun sayin ortib bormoqda. Bugungi kunda elektron ma'lumotlar bazasidan ilmiy-texnik axborot muassasalari, ilmiy-ta'lim jamoalari, nashriyot va jurnallarning tahririylari, internet tizimidan foydalanuvchi tashkilotlar, arxivlar, muzeylar ilmiy izlanuvchilar keng foydalanishmoqda [1].

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarning yangiligi va o'ziga xosligi insoniyat rivojlanishi nuqtai nazaridan ular deyarli insoniyat faoliyati barcha sohalariga kirib borishi, ulardan cheklanmagan joylar va maqsadlarda foydalanish mumkinligidan iborat. Shu sababli axborot-kommunikasiya texnologiyalari uch yo'nalishda ilgari bo'lmanan juda katta samara bilan insoniyat rivojlanishi jarayonidagi to'siqlarni yengib o'tishda imkon beradi:

1) Bilimlarni egallah yo'lidagi to'siqlarni yengish. Axborotlardan foydalanish natijasida ta'lim olish yo'lidagi inson imkoniyatlarini shakllantirish uchun katta ahamiyatga ega. Agar ta'lim kognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga olib kelsa,

axborotlar bilimlar to‘plash jarayonining mazmunli jihatini ta’minlash uchun kerak bo‘ladi. Internet va «Butun jahon tarmog‘i» barcha ijtimoiy qatlAMDagi insonlar uchun birdek axborot izlash kanali bo‘lib xizmat qiladi.

2) Ijtimoiy hayotda ishtirok etish yo‘lidagi to‘sqliarni yo‘qotadi. Internet tarmog‘i orqali butun dunyo bilan aloqa qilish imkoniyati oxirgi yillarda ko‘plab global fuqarolik tashabbuslarini tarqatishga imkon berdi. Misol uchun, ta’lim tizimida qayta aloqani ta’minlash harakati.

3) Iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish yo‘lidagi to‘sqliarni yo‘qotadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalar va ular bilan bog‘liq sohalar hamda ta’lim tizimi eng jadal rivojlanayotgan sektorlar hisoblanadi. Yangi axborot texnologiyalari axborotlar va aloqadan foydalanish imkoniyatini keskin kengaytiradi. Elektron pochta, elektron kutubxonalar — saytlar ta’lim tizimi uchun cheksiz imkoniyatlar beradi, har qanday chegaralarni yo‘qotadi, dunyoning har qanday nuqtasidan o‘quv va ilmiy axborotlarni olish imkonini yaratadi.

Axborot-tarbiyaviy faoliyat. Ta’lim muammosini globalizasiyalashtirish-seminarlar o‘tkazishdan tortib terrorizm va diniy ekstremizim mohiyatini ohib berishgacha-elektron tarmoqlar axborot-tarbiyaviy imkoniyatlarini ahamiyatini oshiradi. Yangi axborot texnologiyalari fan va ta’limni to‘plangan bilimlarni yetkazish, ularni to‘ldirish va qayta baholash kabi yanada yaqin va samarali kanallari bilan bog‘lashga imkon beradi. Bugungi kunda fan-bu ta’lim tizimini rivojlantirish asosiy, ustun turuvchi vositasidir. Bu har doim ham bo‘limgan, ilg‘or axborot texnologiyasi ta’lim tizimida fanning ahamiyatini o‘zgartirdi. Jamiyat faqat fanning o‘zi rivojlanishi bilan emas, balki ta’lim va o‘qitish tizimi bilan ham bog‘liq yangi ilmiy tuzilishni yaratadi.

Bugungi kunda Internetga simsiz ulanishni ta’minlovchi, shu jumladan, mobil telefonlar soni Internetga ulanadigan shaxsiy kompyuterlar sonidan ortib ketdi. Foydalanuvchilar soni ko‘payib borishi bilan axborot texnologiyalari faqat inson

tasavvuri imkoniyatlari bilangina chegaralanadi. Barkamol, har tomoonlama rivojlangan shaxsn ni tarbiyalash muammosi ta'lim tizimidan yosh avloddan faqat milliy madaniyat yutuqlarini emas, balki umuminsoniy dunyo madaniyati yutuqlarini ham egallab olishga intilishni shakllantirishni talab etadi. Barkamol shaxsn ni tarbiyalash g'oyasi milliy mustaqillikning ustuvor g'oyalaridan biri hisoblanadi.

Ta'lim sifatini oshirish yoshlarning ma'naviy-g'oyaviy tarbiyasi darajasini o'stirishning vazifasi hisoblanadi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish so'zsiz yangi axborot texnologiyalariga asoslanishi zarur. Ta'lim tizimini rag'batlantirmay turib, fuqarolik jamiyatini qurib bo'lmaydi. Ta'lim tizimi yopiq nuqtai nazarlar, qarashlar statik tizimi emas, bir uzlusiz jarayondan iborat bo'lishi kerak. Mustaqil Respublikamizning rivojlanishini kafolatlash uchun ta'lim tizimi dinamik, mukammal bo'lishi kerak[2].

Masofaviy on-line o'qitish tizimi bu- masofadan Internet orqali o'qitish va kurslar yaratish asbobidir. Tizim talabalarni o'qitish va o'qituvchilar uchun kurslar yaratish, kurslarni nazorat qilish va olib borish uchun zarur imkoniyatlarga ega. U o'quv yurtlarida va markazlarda masofadan o'qitish, hamda shaxsiy korxonalarda mutaxassislarni masofadan malakasini oshirish va qayta tayyorlash uchun mo'ljallangan. U quydagi tizimlardan iborat: Qayd qilish, masofadan o'qitish kurslarini yaratish tahrirlash, o'qitish kommunikatsiya va yangiliklar[3].

Tizim yordamida o'qituvchi masofadan o'qitish kursini yaratish, tahrirlash, doimo yangilash va kurslarni olib borish, talabalarni kursga qabul qilishi va kursdan o'chirishi mumkin.

Tizim yordamida talaba individual tarzda vaqt va yashash joyidan qatiy nazar doimo o'qish imkoniga ega. Odatda talaba o'qish, topshiriqlarni bajarish, kuzatishlar, tajriba almashish, hatolar qilish va ularni to'g'irlash, fikrlash va boshqalarni o'qitish usullari bilan bilim oladi. Bunda talaba individual tartibda o'qituvchi bilan, boshqa talabalar bilan muayyan muloqat qilish imkoniga ega bo'ladi. On-line tartibdagi o'qish

e'lonlarni, of-line va on-line munozaralarni nazarda tutadi. Bu esa o'qituvchi va talabalarga umumiy savollarni va har bir talabaning savollarini muhokama qilishi imkoniyatini beradi. Talaba individual ishslash bilan birgalikda, hamkorlikda ham ish yuritadi. Har bir talaba umumiy va shaxsiy maqsadga ega bo'ladi. Aynan shu imkoniyatlar virtual o'qitish guruhini yaratadi. Ayniqsa masofaviy o'qitishni internet tarmog'i orqali amalga oshirish yaxshi natijalarni ko'rsatadi va Internetda axborotni tarqatishdagi vaqt va moliyaviy to'siqlarni yo'qotdi yoki sezilarli pasaytirdi bu esa ta'lim tizimi uchun katta axamiyatga ega. Web-saytni doimiy rivojlantirish kerak va qadamma-qadam yangilab borish imkonini beradi. Internet texnologiyalar xar-bir Web-saytga qilingan murojaatlar statistikasini olishga imkon beradi.

Masofadan o'qitish uchun yaratiladigan o'quv-uslubiy materiallarga quydagи talablar qo'yiladi.

- fan mazmuni davlat ta'lim standartdari va o'quv maqsadlariga mos kelishi;
- mustaqil ta'lim olishni taminlashi;
- fan bo'yicha etarli miqdorda ma'lumotlarni o'zida jamlashi;
- fan bo'yicha amaliy mashq va tajribalar bilan taminlashi;
- boshqa fanlar bilan uzaro bog'lanishi;
- o'z-o'zini baxolash va boshqalar.

Masofali o'qitish uchun o'quv-uslubiy materallar yaratish murakkab jarayon bo'lib, ularni yaratishga bir qancha turli yunalishdagi mutaxassislar jalb etiladi. Ularga fan o'qituvchilari, psixologlar, dasturchilar, kompyuter grafikasi mutaxasisi, veb dizayner kabilarni keltirish mumkin. Shunnigdek, o'quv-uslubiy materiallarni yaratishda zamonaviy pedagog texnologiyalarning yutuqlaridan foydalanish maqsadga muofiqdir.

Masofali o‘qitish uchun yaratiladigan o‘quv-uslubiy materiallar ta’lim oluvchilarning mustaqil tayorgarlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga, o‘zlashtirgan bilimlarni amaliyot bilan bog‘lashga, ta’lim-tarbiyani o‘zaro uyg‘unlikda olib borishga, o‘zlashtirilgan bilimlarni mustaxkamlashga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda web-saxifalarni yaratishda html, css, PHP, MySql va javaScript texnologiyalari keng qo‘llanmoqda. Bu dasturdan tillarni turli metodlarni qo‘llasada, ularning umumiyligi tamoyili mavjud. bu dasturlash tillari kodlarini html tili tarkibida qo‘sish imkoniyati mavjud bo‘lib, ifodalanayotgan web-saytning mavjud qismlari dinamik xolatda bo‘ladi[4].

Yuqorida sanab o‘tilgan zamonaviy dasturlash texnologiyalarini ishlatgan xolda Internet tarmog‘i yordamida ishonchli masofaviy o‘qitishni tashkil etishimiz mumkin.

Shu bilan bir qatorda masofadan o‘qitish tizimi xam keng rivojlanmoqda. Hozirgi zamон mutaxassisи qaysi soxada ishlamasin, uning oldida uzining soxasiga tegishli xodisa va voqealarni bilib turishi va bilim saviyasini doimiy ravishda oshirib borishini talab etmoqda. Shuning bilan bir qatorda yangi texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tadbiq etish uning samaradorligini oshirish va takomillashtirish uchun masofadan o‘qitish tizimi keng imkoniyatlar yaratadi. Umuman masofadan o‘qitish tizimi – ta’limning rivojlantirilgan ishi bo‘lib bunday o‘qitish «o‘quvchi va o‘qituvchi» orasida ma’lumotlar almashishning zamonaviy axborot texnologiyalari asosida tashkil qilinadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytish mumkinki, hozirgi zamonaviy kompyuterlar asosidagi telekommunikatsion aloqa orqali an’anaviy o‘qitish uslubidan ko‘ra yuqori saviyada o‘quvchilarga masofadan bilim berish matn, grafika, animatsiya, va xar-xil ko‘rinishdagi o‘quv materiallarni aniq etkazib berish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

[1].M.I.Bazarbayev, A.K.Tulaboyev, E.Ya.Ermetov, D.I.Sayfullayeva, Sh.X. Abdug‘aniyeva, D.N.Isamuxamedov. “Tibbiyotda axborot texnologiyalari” O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan tibbiyot oily ta’lim muassasalari talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan. Birinchi nashr. “Sano-standart” nashriyoti. Toshkent-2018 yil.

[2].Qurbanovich T. B. KASB TA’LIMI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KREATIVLIK KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISH //Mirsanov UM, Jumaqulov K. Sh. – C. 83.

URL:<https://slib.uz/uz/article/view?id=23850>

[3].ТУРДЫМУРОДОВ, Б. (2023). *ВО‘ЛАЯК КАСБ ТА ’ЛИМИ О‘QITUVCHILARINING KREATIV QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHISHI PSIXOLOGO-PEDAGOGIK FENOMEN SIFATIDA. ЦИФРОВИЗАЦИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ: ПРОБЛЕМА И РЕШЕНИЕ, 1(1), 103–107. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ*

URL:<https://inlibrary.uz/index.php/digitalization-modern-education/article/view/24689>

[4].Turdimurodov Bakhtiyor Kurbanovich, Forming Creative Thinking of the Teacher in Teaching Students in Information Technology. Improving the Creative Skills of Vocational Education Teachers, Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal: Vol. 2 No. 5 (2023): MAY

URL:<https://univerpubl.com/index.php/synergy/article/view/1666>